



# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



BUXORO  
MUHANDISLIK-  
TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI




## ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

2024

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON  
Iyun-iyul


INDUSTRY  
4.0



Google  
Scholar



Digital  
Object  
Identifier



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

## Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

## Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

## Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

## Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**"ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK  
TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH  
INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI"**

***MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI***





# MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Murodova Zarina Rashidovna**

Buxoro muhandislik-teknologiya instituti  
“AKT” kafedrasi katta o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Jo'raqulova Mehrangez Orifovna**

Buxoro muhandislik-teknologiya instituti  
“Energetika” kafedrasi stajiyor o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola intellektual salohiyatni shakllantirish va aniqlashga xizmat qiladi. Topshiriqlar 9-sinf o‘quvchilarining fikrlashini aynan sonlar va ularning raqamlari bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarini aniqlashda ishlataladi. Bu kabi topshiriqlarni tuzish va ularning intellektual salohiyatga ta’sirini o‘rganishga asoslanib, intellektual salohiyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarga misol bo‘lishi mumkin. Aynan bunda bir bob yoki ikkita bob bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqish uslubini yaratish mumkin. Ammo fan bo‘yicha bir uslubni tanlash va uni fanga joriy qilish juda murakkab ish hisoblanadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalariga oid fanlarda buni ko‘rish mumkin. Chunki bir sinfda kamida 3 ta yo‘nalish bo‘yicha mavzular mavjud. Shuningdek, matematika fani uchun bir sinfga mo‘ljallangan topshiriqlar ishlab chiqish uslubini yaratib, foydalanish maqsadli bo‘lar, ammo keskin farqlanuvchi boblardan iborat fan uchun bob miqyosida ishlab chiqish lozim.

**Kalit so‘zlar:** intellekt, shakllantirish, axborot texnologiyalari, dasturlash, algoritmlash asoslari, topshiriq vazni, topshiriq shajarasi, intellektual salohiyat

**Abstract:** This article serves to form and determine intellectual potential. Tasks are used to determine the thinking of 9th graders, specifically numbers and their skills in working with numbers. Based on the creation of such tasks and the study of their impact on intellectual potential, it can be an example of tasks aimed at the formation of intellectual potential. It is in this way that you can create a method of developing tasks for one chapter or two chapters. But choosing a method in science and introducing it to science is a very difficult task. This can be seen especially in the sciences related to information technologies. Because there are at least 3 topics in one class. Also, it would be appropriate to create and use a method of developing tasks for one class for mathematics, but for a subject with sharply different chapters, it should be developed on a chapter scale.

**Key words:** intelligence, formation, information technology, programming, basics of algorithm, task weight, task tree, intellectual capacity.

**Аннотация:** Данная статья служит для формирования и определения интеллектуального потенциала. Задания используются для определения мышления девятиклассников, а именно чисел и их навыков работы с числами. На основе создания таких задач и изучения их влияния на интеллектуальный потенциал она может служить примером задач, направленных на формирование интеллектуального потенциала. Именно таким образом можно создать методику разработки заданий на одну главу или на две главы. Но выбрать метод в науке и внедрить его в науку – очень трудная задача. Особенно это можно увидеть в науках, связанных с информационными технологиями. Потому что в одном занятии минимум 3 темы. Также было бы целесообразно создать и использовать методику разработки задач для одного класса по математике, но для предмета с резко разными главами ее следует разрабатывать в масштабе глав.

**Ключевые слова:** интеллект, образование, информационные технологии, программирование, основы алгоритма, вес задачи, дерево задач, интеллектуальный потенциал.



## KIRISH

Jahon miqyosida fan-texnika taraqqiyoti, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishda insonlar intellektual salohiyati muhimligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, dunyo bo'yicha ilm-fan rivojining bugungi holati, ayniqsa, bu borada yoshlarga bilim berish keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldida ularni jadal egallah bilan bir qatorda muntazam va mustaqil ravishda bilim izlashdek vazifani qo'yemoqda. Jumladan, Inchxon deklaratsiyasi va va "Ta'lim – 2030" xalqaro ta'limga rivojlantirish harakat dasturida ko'zda tutilgan aniq va tabiiy fanlar tendensiyasida ta'lim xizmatlarini virtuallashtirish va istiqbolli ta'lim mega-portallarini yaratish, ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muammolariga nazariy va amaliy yechimlar topishda informatika va axborot texnologiyalari yutuqlarini ko'plab yo'nalishlarda keng tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda tan olingen va e'tirof etilgan ilg'or ta'limga tizimlarida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanishning bir qator didaktik xususiyatlari va omillariga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bunda ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, dunyoqarashi, aqliy salohiyati va o'ziga xos individual imkoniyatlari asosida ta'limga tashkil etish va o'tkazish muhim o'rinni tutadi. Xususan, umumiyligi o'rta ta'limga intellektual salohiyatni shakllantirish, aniqlash jarayonini samarali tashkil etishda fundamental, aniq va tabiiy fanlar qamrovida zamонавиу axborot texnologiyalarni amaliy qo'llash hamda ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda zamонавиу pedagogik dasaturiy vositalar keng imkoniyatlar yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda masofaviy ta'limga ommalashuvi fonida mustaqil ta'limga raqamli texnologiyalardan foydalanish ham dinamik o'sib borishini ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan, oxirgi yillarda, qator olimlar ushbu sohada qator tadqiqotlar o'tkazishdi. Ular o'z ilmiy ishlarida mustaqil ta'limga zamонавиу texnologiyalarning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tishgan.

Xususan, A.M. Karavayeva ta'kidlaganidek, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini, o'qishdagini o'zaro ta'sirini ham oshiradi.

Bu borada T. Anderson va J. Dronlar quyidagicha xulosaga to'xtalishgan: "Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan mustaqil ta'limga jarayoni sezilarli darajada o'zgardi. Onlayn ta'limga platformalari va masofaviy ta'limga vositalari o'quvchilarga o'z vaqtida va qulay joyda ta'limga olish imkoniyatini yaratdi. Mustaqil ta'limga tashkil etishda raqamli vositalar interaktivlik, moslashuvchanlik va individual yondashuvni ta'minlaydi, bu esa ta'limga sifatini oshiradi".

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mustaqil ta'limga tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish xossalari o'rganishda umumiyligidan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrflash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Intellektual salohiyatga yo'naltirilgan topshiriq ishlab chiqish mexanizmini yaratish quyidagi xususiyatlarga bog'liq deb hisoblaymiz:

- bob bo'yicha mavzularning uzviy ketma-ketligi;
- topshiriqlar va ularga qo'yiladigan talablar;
- PDV va nazariy amallarning bog'liqligi;
- topshiriqlarni ishlab chiqish uslubi;
- topshiriqlar vaznini aniqlash va amallar ustuvorligi.

Bu xususiyatlarni qanoatlantiruvchi darajasi intellektual salohiyatni shakllantirish va aniqlashga xizmat qiladi. Aynan bunda bir bob yoki ikkita bob bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish uslubini yaratish mumkin. Ammo fan bo'yicha bir uslubni tanlash va uni fanga joriy qilish juda murakkab ish hisoblanadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalariga oid fanlarda buni ko'rish mumkin. Chunki bir sinfda kamida 3 ta yo'nalish bo'yicha mavzular mavjud. Shuningdek, matematika fani uchun bir sinfga mo'ljallangan topshiriqlar ishlab chiqish uslubini yaratib, foydalanish maqsadli bo'lar, ammo keskin farqlanuvchi boblardan iborat fan uchun bob miqyosida ishlab chiqish lozim.



Umumta'lim maktablari 9-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fanida 3 bob, Algoritmlash asoslari, Dasturlash, Web-sahifa kabi boblar mavjud. Har bir bobning o'ziga xos mavzulari bor. Boblar ketma-ket o'rinni, ammo boblar bo'yicha topshiriq va masalalarni yechish vositalari va yondashuvlari, PDVlari turlicha hisoblanadi. Topshiriq va masalalarni ishlab chiqish uchun, avvalo, mavzular uzviyligi va tushunchalarni ketma-ket o'rgatish tamoyiliga asoslanish lozim.

- Algoritmlash asoslari bob bo'yicha mavzularning uzviy ketma-ketligini quydagicha taklif qilamiz:
- Algoritm tushunchasi;
- Algoritmning asosiy xossalari;
- Algoritmning turlari;
- Algoritmni tasvirlash usullari;
- Chiziqli algoritmlar;
- Tarmoqlanuvchi algoritmlar;
- Takrorlanuvchi algoritmlar;
- Aralash (kombinatsiyalashgan) algoritmlar.

Bu mavzularga doir topshiriqlar va ularga qo'yiladigan talablar quydagilardan iborat:

1. Topshiriqning aniq kiruvchi parametrleri mavjudligi.
2. Topshiriqning aniq chiquvchi parametrleri mavjudligi.
3. Topshiriqning yechimini topishning kamida bitta varianti bo'lishi.
4. Topshiriqni yechish uchun o'quvchining oldin o'zlashtirgan bilimi asosida bo'lishligi.
5. Topshiriqni bir nechta o'zaro bog'langan bilimlar bilan yechish usulining mavjudligi.

Ushbu talablar asosida topshiriqlarni ishlab chiqish ko'p hollarda inobatga olinayotgandek tuyuladi. Ammo topshiriqni yechimini olishda xususiy hollar kiritib, ba'zi xususiyatlarni oddiylashtirish lozimligini mualliflar ham ta'kidlab o'tadi[80].

Talablar asosida masala va topshiriqlarni tuzish mumkin, ammo intellektual salohiyatni shakllantirish va aniqlash uchun yana ikki xususiyatlari, vaznli va shajarali topshiriqlarni qarashimiz kerak.

1. Topshiriq vazni – bu topshiriqning qiyinlik darajasini bildiruvchi bir xususiyatidir. Vazn asosida o'quvchining salohiyatini, topqirligini, tezligini aniqlash mumkin.

2. Topshiriq shajarasi – oldingi topshiriqqa bog'langan (qisman bog'langan) topshiriq xususiyati tushuniladi. Shajarali topshiriq o'quvchining qonuniyat topish, mustaqil fikrlash, eslash, oldingi tajribani joriy qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Vaznli topshiriqlarni tuzish uslubi har bir mavzu yoki bob bo'yicha turli yondashuv asosida bo'lishi mumkin. Axborot texnologiyalariga oid intellektual salohiyatni shakllantirish va aniqlash uchun topshiriqlarni yechishda ishlataladigan formulalar soni ularning vazni hisoblanadi.


Bir vaznli masalaga misol, R radiusli - aylananing uzunligini topish algoritmini tuzing. Masala,  $L = 2 \cdot \pi \cdot R$  formula bilan topiladi. Shuning uchun bu bir vaznli hisoblanadi.

Ikki vaznli masalaga misol, To'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari berilgan, uning perimetrini topuvchi algoritm tuzing. Algoritmini tuzish uchun birinchi uchburchakning s tomonini  $s = \sqrt{a^2 + b^2}$  va P perimetri  $P=a+b+c$  ifodalar bilan aniqlanadi. Shuning uchun bu ikki vaznli hisoblanadi.

Uch vaznli masalaga misol, a va b o'zgaruvchilar berilgan, qo'shimcha o'zgaruvchi ishlatalmasdan ularning qiymatlarini almashtirish algoritmini tuzing. Bunda  $a=a+b$ ,  $b=a-b$ ,  $a=a-b$  kabi 3 ta ifodadan foydalaniadi. Shuning uchun bu uch vaznli hisoblanadi.

Yuqorida misollar asosida shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, algoritmlashni o'rganish uchun tuziladigan masala va topshiriqlarda yechimni olish uchun nechta formula (qonuniyat) ishlatisa, u shu vaznga tenglashtirilishi maqsadga muvofiqligini anglash mumkin.

Shajaraga asoslangan topshiriqlar tizimini ishlash bu vaznli topshiriqlarni ishlab chiqishga nisbatan ancha murakkab hisoblanadi. Uni quydagi 1-rasm asosida tasavvur qilish mumkin.



1-rasm. Shajara topshiriqlarning o'zaro bog'liqligi



Shajara topshiriqlar, odatda, bir topshiriq uchun bir yoki undan ko'p topshiriqlarni yechishni talab qiladi. Bunday topshiriqlarning qiyinchiligi va yechish g'oyalarini aniqlash bilimlarning keng qamrovli bo'l shini tashkil etadi.

2.3.1-rasmda E1 topshiriqni bajarish uchun o'quvchi D1 va S1 topshiriqni bajarishi maqsadga muvofiq, D1 topshiriqni bajarish uchun C2 topshiriqni bajarishi maqsadga muvofiq, S1 va S2 topshiriqni bajarish uchun B1 topshiriqni bajarish maqsadga muvofiq, B1 topshiriqni bajarish uchun A1 topshiriqni bajarishi maqsadga muvofiq va buni davom ettirish mumkin.

Shajarali topshiriqlarga misol qilib, A<sup>4</sup> ni ikkita amal orqali bajarish algoritmini tuzing. Bu topshiriqdan so'ng, A<sup>8</sup> ni 3 ta amal, A<sup>16</sup> ni 4ta amal va A<sup>2<sup>n</sup></sup> ni n ta amal bilan topshiriqlarini bajarish mumkin.

Shajarali topshiriqlarga misol qilib, quyidagi topshiriqlarni ham olish mumkin:

1-topshiriq. Oy nomeri berilgan (1 — yanvar, 2 — fevral, ...). Mos ravishda yilning faslini topuvchi algoritm tuzing ("qish", "bahor" va h.k.).

2-topshiriq. Uchta butun son berilgan. Agar son manfiy bo'lsa kvadratga, musbat bo'lsa kubga ko'tarib natijani chiqaruvchi algoritm tuzing.

3-topshiriq. OX va OY o'qlarida yotuvchi nuqta berilgan. Nuqta koordinatalari haqiqiy sondan iborat. Berilgan nuqta qaysi koordinataga joylashganligini aniqlovchi algoritm tuzing.

4-topshiriq. 0 – 9 oralig'dan butun son berilgan. Shu raqamni so'z bilan ifodalovchi satrni chiqaruvchi algoritm tuzing. (Masaslan: 0 — "nol", 1 — "bir", 2 — "ikki", ...).

5-topshiriq. Yoshni aniqlaydigan 20 – 69 oralig'dan butun son berilgan (yoshda). Berilgan yoshni so'z bilan ifodalovchi algoritm tuzing. (Masalan: 20 — "yigirma yoshda", 32 — "o'ttiz ikki yoshda", 41 — "qirq bir yoshda").

Bu topshiriqlarning 4 tasi 1 vaznli va oxirgi 5-topshiriq 2 vaznli hisoblanadi. Topshiriqlarning orasida eng oddiy bir harakatda algoritmini tuzish mumkin bo'lgani bu – birinchisidir.

Topshiriqlar ketma-ketlik asosida bajarilsa, o'quvchining intellektual salohiyati shakllanib borishini aniqlash va bu topshiriqlarning shajarasimon qilib ketma-ket bajarish maqsadga muvofiqligini anglatadi.

Shajarali topshiriqlar o'quvchilarga qonuniyatlarni topish uchun ham xizmat qiladi. Misol uchun quyidagi topshiriqlar berilgan bo'lsin:

a haqiqiy son berilgan bo'lsin. Faqat ko'paytirish amalidan foydalanim, algoritmlarni tuzing.

a<sup>7</sup> ni to'rtta amal bilan;

a<sup>3</sup> va a<sup>10</sup> ni to'rtta amal bilan;

a<sup>4</sup> va a<sup>20</sup> ni beshta amal bilan;

a<sup>2</sup>, a<sup>5</sup> va a<sup>17</sup> ni oltita amal bilan;

a<sup>4</sup>, a<sup>12</sup> va a<sup>28</sup> ni oltita amal bilan.

Shajarali topshiriqlar asosida o'quvchining intellektual salohiyatini ham aniqlash mumkin. Misol uchun quyidagi topshiriqlar berilgan bo'lsin.

1. N natural son berilgan.  $1 + 2 + 3 + 4 + \dots + N$  ifodaning natijasini topuvchi algoritm tuzing. Aniq  $\frac{N(N+1)}{2}$  javobi bilan taqqoslang.

2. N natural son berilgan.  $1 + 3 + 5 + 7 + \dots + (2N - 1)$  ifodaning natijasini topuvchi algoritm tuzing. Aniq  $\frac{N^2}{2}$  javobi bilan taqqoslang.

3. N natural son berilgan.  $2 + 4 + 6 + 8 + \dots + 2N$  ifodaning natijasini topuvchi algoritm tuzing. Aniq  $\frac{N(N+1)}{2}$  javobi bilan taqqoslang.

4. N natural son berilgan.  $1^2 + 2^2 + 3^2 + 4^2 + \dots + N^2$  ifodaning natijasini topuvchi algoritm tuzing. Aniq  $\frac{N(N+1)(2N+1)}{6}$  javobi bilan taqqoslang.

5. Berilgan  $1 + \frac{1}{2^2} + \frac{1}{3^2} + \dots$  ifodaning natijasini  $e=10^{-4}$  aniqlikda topuvchi algoritm tuzing. Aniq  $\frac{\pi^2}{6}$  javobi bilan taqqoslang.

6. Berilgan  $1 - \frac{1}{2^2} + \frac{1}{3^2} - \dots$  ifodaning natijasini  $e=10^{-5}$  aniqlikda topuvchi algoritm tuzing. Aniq  $\frac{\pi^2}{12}$  javobi bilan taqqoslang.

7. Berilgan  $1 + \frac{1}{2^4} + \frac{1}{3^4} + \dots$  ifodaning natijasini  $e=10^{-6}$  aniqlikda topuvchi algoritm tuzing. Aniq  $\frac{\pi^4}{90}$  javobi bilan taqqoslang.

Bu berilgan topshiriqlar bir va ikki vaznli bo'lib, sodda o'zgartirish orqali barchasining ketma-ket algoritmlarini tuzib chiqish mumkin. Shu sodda o'zgarishni topa olish o'quvchining intellektual salohiyatini shakllantirish va aniqlash uchun xizmat qiladi. Shajara topshiriqlarga doir berilgan keyingi topshiriqlar:



- Berilgan sonni raqamlar yig'indisini topadigan algoritm tuzing.
- a va b sonlari orasidagi musbat sonlari yig'indisini topadigan algoritm tuzing.
- a va b sonlari orasidagi umumiy bo'lувчилари ro'yxatini topadigan algoritm tuzing.
- Berilgan sondagi toq raqamlari sonini topadigan algoritm tuzing.
- N ta fibinanchi sonini topadigan algoritm tuzing. (fibinanchi soni o'zidan oldin kelgan ikkita sonni yig'indisiga teng va birinchi ikkitasi birga teng. Masalan: 1, 1, 2, 3, 5, ...).
- Berilgan ikki son orasidagi tub sonlari ro'yxatini topadigan algoritm tuzing. (Tub son bu faqatgina o'zi va birga bo'linadigan sondir. Masalan: 5, 13, 11, 3).
- Berilgan natural sonni eng kichik juft raqamini topadigan algoritm tuzing.

Bu topshiriqlar 9-sinf o'quvchilarining fikrlashini aynan sonlar va ularning raqamlari bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalarini aniqlashda ishlataladi. Bu kabi topshiriqlarni tuzish va ularning intellektual salohiyatga ta'sirini o'rganishga asoslanib, intellektual salohiyatni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarga misol bo'lishi mumkin. Ammo bir tomonidan bularni ajratish ham to'g'ri kelmaydiganga o'xshaydi, chunki intellektual salohiyatni aniqlash ham, shakllantirish ham o'zaro ko'rinas qonuniyat bilan bog'liq.

Algoritmlarni tuzishda, asosan, arifmetik amallar bilan birga munosabat va mantiqiy munosabat (murakkab munosabat) amallari ham mavjud. Bu amallar vaznli va shajarali topshiriqlarni tuzish uchun asosiy elementar amallar hisoblanadi. Xuddi shuningdek, bu amallar intellektual salohiyatning ham nozik qoidalarini topish va ozgina o'zgarishiga algoritmnинг natijasiga ta'siri katta bo'lgan elementlar hisoblanadi. Scratch dasturida bu amallar "Amallar" panelida quyidagicha elementlar sifatida keltirilgan (1-jadval).

Algoritmlarni tuzishda takrorlanish jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish ham muhim element hisoblanadi. O'quvchilar tomonidan tuziladigan yoki hayotda uchraydigan juda ko'plab algoritmlar takrorlanish jarayoniga egadir.

#### 1-jadval. Munosabat amallari

Amallar	Matematikadagi ifodasi	Mazmuni	Misol
	<	Kichik	a < b
	=	Teng	a == b
	>	Katta	a > b

Algoritmda takrorlanish jarayonini tashkil qilish uchun shart amali va butun qadamli takrorlanish blok sxemadan foydalaniladi. Ammo, Scratch takrorlanish jarayonlarining algoritmlarini tuzish uchun aynan dasturlashga yo'naltirilgan takrorlanish elementlari ishlataladi(2-jadvalga qarang).

#### 2-jadval. Takrorlanish jarayonining algoritmlarini tuzish elementlari

Elementlar	Mazmuni
	Takrorlanish tanasidagi amallarni cheksiz bajarish.
	Takrorlanish tanasidagi amallarni foydalanuvchi ko'rsatgancha bajarish. Masalan, 10 marta.

Takrorlanishlarni har doim hayotiy chiqishi uchun yuqorida keltirilgan Scratch dasturining takrorlanish uskunalaridan foydalaniladi. Shuningdek, takrorlanish jarayonilaridan aynan bir shart yoki qiymat olingandan so'ng takrorlanish jarayonidan chiqib ketish yoki davom ettirish mumkin. Chiqib ketish yoki davom ettirish operatorlari dasturlash tillarida mavjud, ammo blok sxema asosida chizish shakllari yo'q. Bu takrorlanish uskunalar o'quvchilarga real algoritmlarni tuzish va uni dasturlashga tayyorlash amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qo'l keladi.

Algoritm tuzishda tarmoqlanish jarayoni ham asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Odatda, blok sxema yordamida tuziladigan algoritmda tarmoqlanish jarayoni shart va bir nechta amal bajarish sxemalari bilan to'liq amalga oshiriladi. Real hayotdagи algoritmlarda esa to'liq bo'lgan va to'liq bo'lmagan tarmoqlanish jarayonlari mavjud. Shuning uchun ham Scratch dasturida ikki element mavjud (3-jadvalga qarang).



### 3-jadval. Tarmoqlanish jarayoni uchun uskunalar

Elementlar (Uskunalar)	Mazmuni
	Tarmoqlanish jarayonining to'liq bo'limgan jarayonini bajarish
	Tarmoqlanish jarayonining to'liq bo'lgan jarayonini bajarish

Algoritmlarni tuzishda asosiy xususiyatlardan biri bu yangi tipdag'i o'zgaruvchini kiritishdan iboratdir. O'zgaruvchi bu algoritmlar davomida ma'lumotlarni saqlash va murojat qilish uchun ishlataladi (matematikadagi belgilash bilan bir xil). Bunday imkoniyat Scratch dasturining "Ma'lumot" panelida joylashgan va unda maxsus o'zgaruvchini yaratish elementi kiritilgan. Bundan foydalanib o'quvchi ixtiyoriy o'zgaruvchini yaratish mumkin, buning uchun quyidagi qadamlar bajarilishi kerak.

"Ma'lumot" paneliga kiriladi.

"O'zgaruvchi yaratish" tugmasi bosiladi va ekranda muloqot oynasi chiqadi (2-rasm).



### 2-rasm. Yangi o'zgaruvchini kiritish

- O'zgaruvchiga nom beriladi.
- O'zgaruvchining turi tanlanadi. Agar barcha skriptlar uchun tanlansa, joriy loyihadagi barcha algoritmlar uchun ishlataladi, faqat shu skript uchun tanlansa, joriy loyihadagi joriy algoritmlar uchun ishlataladi. Yaratilgan o'zgaruvchi uchun Scratch dasturda 5 ta uskuna yaratib beriladi (4 -jadval).

### 4-jadval. O'zgaruvchi bilan ishlash uskunalarini

Elementlar (Uskunalar)	Vazifasi	Misol
	A o'zgaruvchisiga yangi qiymat berish	
	A o'zgaruvchisiga son qo'shib, yangi qiymat berish	

Algoritmlarni tuzishida o'quvchilar tomonidan juda ko'p muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi jarayon bu ro'yxat (toplum, massiv) elementlari bilan ishlashdir. Buning uchun algoritmlarga qo'shimcha algoritmlar yaratilishi talab qilinadi. Scratch dasturida esa buning uchun maxsus ro'yxat yaratish va undan foydalanish uskunalarini hosil qilish mumkin.

Yangi ro'yxat o'zgaruvchisini yaratish uchun quyidagi qadamlar bajariladi.

- "Ma'lumot" paneli kiriladi.
- "Yangi ro'yxat yaratish" tugmasi bosiladi va ekranda muloqot oynasi chiqadi (3-rasm).



### 3-rasm. Yangi ro'yxat o'zgaruvchini kiritish



3.Ro'yxat o'zgaruvchisiga nom beriladi.

4.Ro'yxat o'zgaruvchisining turi tanlanadi. Agar barcha skriptlar uchun tanlansa, joriy loyihadagi barcha algoritmlar uchun ishlataladi, faqat shu skript uchun tanlansa, joriy loyihadagi joriy algoritmlar uchun ishlataladi.

Yaratilgan yangi ro'yxat o'zgaruvchi uchun Scratch dasturda ro'yxat bilan ishlashga mo'ljallangan 10 ta uskuna yaratib beriladi (5-jadval). Scratch dasturida o'quvchilarning ijodkorligini rag'batlantirish uchun, o'quvchi o'ziga maxsus algoritmning ma'lum maqsadini bajarishga qaratilgan yangi uskunani yaratish imkonи mavjud. Buning uchun "Yana bloklar" panelidan foydalanish lozim (4-rasmga qarang).



4-rasm. Yangi uskuna yaratish oynasi

Yangi uskuna yaratish uchun kerakli maydonni ustiga sichqonchani chap tugmasini bosish yetarlidir.

Yuqoridaq algoritmlarni tuzish uskunalari asosida intellektual salohiyatni shakllantirishga oid topshiriqlarni ishlab chiqish uslubini keltiramiz:

Vaznli topshiriq ishlab chiqiladi (1-masala). Vaznli topshiriqning hisoblash ifodalari o'zgartiriladi (2, 3, ..., 10-masala). Vazn bittaga oshiriladi (11-masala).

Vaznli topshiriqning hisoblash ifodalari o'zgartiriladi (12, 13, ..., 20-masala).

Shunday qilib, intellektual salohiyatni shakllantirishga oid topshiriqlarni ishlab chiqish uslubi takrorlanish jarayoniga moslab 100 tagacha topshiriq ishlab chiqish mumkin.

Masalan, bir vaznli topshiriqni Scratch dasturida tuzish va keyingi 9 masalasini yechishni olaylik.

#### 1-topshiriq

Kvadratning tomoni a berilgan. Uning  $P = 4 \cdot a$  peremetrini hisoblash algoritmini tuzing.



5-rasm. 1 - topshiriq algoritmi

#### 2-topshiriq

Kvadratning tomoni a berilgan. Uning  $S=a^2$  yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.



6-rasm. 2 - topshiriq algoritmi

Bu 2 ta topshiriqda 1-topshiriqning algoritmi tuzilganidan so'ng, 2-topshiriqning algoritmi 4 ta ish bilan tuziladi.

1-ish. Yangi S o'zgaruvchi kiritish.

2-ish. Algoritmnинг 4 qadamidagi P ni S ga o'zgartirish.

3-ish. Algoritmnинг 4 qadamidagi hisoblash ifodasini o'zgartirish

4-ish. Algoritmnинг 4 qadamidagi P ni S ga o'zgartirish.

Shunday qilib, qolgan 8 ta masalaning algoritmlari ham tuziladi. Bu jarayon davomiyligi o'quvchining topshiriqlar algoritmlarini tuzishda o'zgaruvchilar, matematik ifodalar, foydalilanigan algoritmlarni tuzish uskunalarining vazifalari asosida 2-topshiriqning farqi keyinchalik masalalarning farqi intellektual salohiyatni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Algoritmlarni tuzish uskunalari asosida intellektual salohiyatni aniqlashga oid topshiriqlarni ishlab chiqish uslubini keltiramiz:

Vaznli topshiriq tuziladi (1-masala). Bu topshiriqda asosiy bir g'oya va masalalar turkumi bo'lishi lozim. Asosiy g'oyaga asoslangan va ozgina o'ylab yechish topshirig'i tuziladi (2-masala).



Asosiy g'oyani rivojlantirib borish asosida keyingi topshiriq tuziladi(3, 4, ... 10-masala). Asosiy g'oya tubdan o'zgartirilib, yangi g'oyali topshiriq tuziladi va turkum o'zgarmaydi(11-masala). 3. G'oyaga asoslangan va ozgina o'ylab yechish topshirig'i tuziladi (12-masala). 4. G'oyani rivojlanatirib borish asosida keyingi topshiriq tuziladi(13, 14, ... 20-masala).

Shunday qilib, intellektual salohiyatni aniqlashga oid topshiriqlarni ishlab chiqish uslubi takrorlanish jarayoniga moslab 100 tagacha topshiriq ishlab chiqish mumkin. Bunda masalalarning vaznlari turlicha va shajaraga asoslangan topshiriqlarga turli ko'rinishli algoritmlar bo'ladi. O'quvchilar tomonidan algoritmi tuzilgan masalalar soni intellektual salohiyatni aniqlash mezoni bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, har qanday raqamli texnologiya falsafiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, bilim dunyosiga kiritilgan innovatsion texnologiyalarni tartibga solish, tizimlashtirish va tartiblashtirish zarur. Darsda yangi usul va metodlarni qo'llash orqali olingan natijalar quyidagilardan iborat: o'quvchilarning o'qishga qiziqishi ortib bormoqda, biznes ko'nikmalari, aqliy faoliyat, qobiliyatlilik, o'ziga ishonch, talabalar o'z fikrlarini muntazam ravishda ifoda etishni o'rganadilar va bularning barchasi innovatsion bilim darajasini oshirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Murodova Z.R. "Axborot texnologiyalari ta'limida intellektual salohiyat shakllantirish va aniqlash" // Monografiya. – T.: "Buxoro", 2020. ISBN 978-9943-6816-0-6, KBK 32.81-5. 32.973-018-B. 104.
2. Murodova Z.R. The formation and definition of the intellectual potential in education // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science SOI:1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 02 Volume: 82 Published: 21.02.2020, Philadelphia, USA. Impact Factor: ESJI = 8.716. P. 113-116.
3. Murodova Z.R. Theoretical basis, methods and methods of formation and Determination of potential in the educational system // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), Impact Factor: 6.410. Case of Asia Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470.https://www.ijtsrd.com/list-papers/MurodovaP.73-76.
4. Murodova Z.R. Intellekt the mechanism for the development of tasks oriented to the visual potential // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT) Vol.12 No. 4 (2021). (Scopus) DOI: https://doi.org/10.17762/turcomat.v12i4.478. https://www.turcomat.org/index.php/turkbilmamat/article/view/478.P. 93-100.
5. Murodova Z.R. Axborot texnologiyalar ta'limida intellektual salohiyatini shakllantirish innovatsiyalari // Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro 2019. №3.–B.133-135. [13.00.00. №23].
6. Murodova Z.R. Ilmiy-axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishida intellektual salohiyatning shakllanishi // Pedagogik mahorat. Ilmiy nazariy va metodik jurnal. Buxoro 2020. №3.–B.91-94. [13.00.00. №23] .
7. Murodova Z.R. Analysis of the influence of intelligence, creativity and personal characteristics on the educational performance of high school students // "O'zbekiston milliy universiteti xabarları" jurnali. – Toshkent, 2020. №1/4.–B. 95-98. [13.00.00. №15].
8. Murodova Z.R. Psychological and pedagogical aspect of the emergence of intellectual models of autor's tests // Electronical Journal of actual problems of modern science, education and training. Khorezm 2020. February-I.P. 284-291[13.00.00. №24].
9. Murodova Z.R. Methods of formation and identification of intellectual potential in the field of information technologies // Electronical Journal of actual problems of modern science, education and training. Khorezm 2020.AugustIV.P. 56-62. [13.00.00. №24].
10. Murodova Z.R. A mechanism for developing intellectual tasks focused on visual potential // Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2021 yil, 15-arel. – B. 509-510.
11. Murodova Z.R. Information technologies as a condition for the development of the intellectual potential of students // Innovations puti resheniya aktualnykh problem razvitiyu i neftegazoximicheskoy promyshlennosti materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. 12-14 noyabr. 1-tom Buxoro – 2020.– B. 717–723.



# MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi .....	4
<b>Sadoqat Siddiqova</b>	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов .....	9
<b>Юлдашев Норбек Худайназарович</b>	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
<b>Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev</b>	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi .....	19
<b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich</b>	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish .....	24
<b>Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
<b>Ядгаров Ўкташ Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович</b>	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices .....	37
<b>Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli</b>	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development .....	44
<b>Jafarova Khilola Khalimovna</b>	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлокного переплетения .....	48
<b>Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.</b>	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины .....	53
<b>Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли</b>	
Mustaqil ta'limiň tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
<b>Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna</b>	
Kislородли birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish .....	66
<b>Saloydinov Aziz Avazovich</b>	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
<b>Akramova Obida Qosimovna</b>	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
<b>Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов</b>	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
<b>Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов</b>	
Туризм: типология и классификация.....	95
<b>Малоҳат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна</b>	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
<b>Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi</b>	
Umumiyligi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
<b>Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna</b>	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari .....	114
<b>Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich</b>	
Kichik quvvatlari, energiya samarador shamlar turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
<b>I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov</b>	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети ..... <b>Мухамадиева Зарина Баходировна</b>	127
Dizel moylarini reologik xossalari tattiq qilish ..... <b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li</b>	132
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов ..... <b>Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович</b>	136
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush forovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati ..... <b>Xayitov Sherbek Naimovich</b>	141
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilaniladigan gazlamalar tahlili ..... <b>Sayidova MaftunaHamroqul qizi</b>	148
Production of tomato paste ..... <b>Ergasheva Muhabbat Komil kizi</b>	153
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions ..... <b>Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna</b>	156
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari ..... <b>Avezova Shaxnoza Maximudjonovna</b>	159
Dual ta'lilda keys texnologiyasini qo'llash ..... <b>Sariyev Rustam Bobomuradovich</b>	166
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari ..... <b>Jumayev Bahodir Raxmatullayevich</b>	169

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.